

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARGONA DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

TARIX RAFEDRASI

Tarix yo'nalishi

13.437 guruh bitiruvchisi Usmonova Dilrobo Maqsudjonovnaning

Tarix o'qitishning ilmiy- uslubiy omillari (kasb-hunar

kollejlari misolida) mavzusidagi

BITIRUV MALAKA VIY

ISHI

Ilmiy rahbar – p.f.d. prof. T.A. Egamberdieva

FARG'ONA - 2017

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2017 yil -may -yig‘ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri _____ S. Mirsoatova

Taqrizchilar 1. p.f.d. prof. T.A. Egamberdieva

2.t.f.n. A.Umaraliev

Mundarija

Kirish.....

I bob: Tarix darslariga ilmiy yondoShuvlarning maqsad va vazifalari

I.1. Tarix darslariga ilmiy yondoShuvlar.....

I.2. Ta’lim texnologiyasi va o‘qituvchi

II bob. Tarix darslarida noan’anaviy dars usullaridan foydalanish va uning uslubiy ahamiyati

II.1. Tarix darslarida noan’anaviy dars usullaridan foydalanish

II.2.Noan’anaviy dars usullarining yutuqlari va ahamiyati.....

Xulosa.....

Foydalilanigan adabiyotlar.....

Kirish

Mavzuning dolzarbliji: O‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimlarda tarix fanining asosiy maqsadi eng qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo‘lgan Vatanimiz va jahon tarixiga oid eng muhim voqealar bilan o‘quvchilarni tanishtirish, ularni O‘zbekiston va jahon xalqlarining madaniy va ma’naviy merosiga, ilg‘or an’analariga, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk merosimizning davomchilari hamda uni boyituvchilari bo‘lmish munosib vorislarni tarbiyalashdan iborat.

Tarix darslarning birinchi galdegisi vazifasi ham yuqorida qayd etilganlarni amalga oshirishdan iboratdir. Bu mas’uliyatli vazifaning muvoffaqiyatli bajarilishi yoshlarga bilim berish va tarix fanlarining yutuqlari bilan doimo tanish bo‘lib, ilg‘or tajribalardan foydalana bilishga bog‘liqdir.

Bitiruv malakaviy ishninng dolzarbliji Shundaki, noana’anaviy darslar u o‘quvchi yoshlarga tarixdan puxta bilim berish, kasb-hunar kollej yoki bilim yurtida o‘qitiladigan tarix kursining maqsadini, mazmunini, metod va usullarini hamda tarix o‘qitishning eng muhim vositalarini belgilab olishni aniqlash, o‘qitish jarayonining ob’ektiv suratda amal qiladigan o‘z qonuniyatlarini o‘rganishdan iboratdir. Ularni bilib olish va ta’lim tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish bilim yurtlarida tarixdan dars berishni ilmiy asosda olib borishni muhim shartidir. Taniqli olim, professor A.Sa’diev quyidagicha ko‘rsatib o‘tadi: “...tarix kursining maqsadi, ta’lim-tarbiya vazifalarini muvoffaqiyatli amalga oshirilishi o‘qitishning mazmuniga, uning g‘oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo‘lishiga bog‘liq bo‘lganidek, o‘quvchilarning tarix kursini o‘zlashtirish darjasini ham o‘z vaqtida o‘qitishni ilmiy asosda, maqsadga muvofiq tashkil qilinishiga, o‘qituvchining o‘rganiladigan mavzuning maqsadi, ta’lim-tarbiya vazifalari va mazmuniga mos keladigan o‘qitish metod va usullaridan qay darajadan foydalana bilishga bog‘liqdir”¹. Shuningdek, o‘qitishning natijalari ham o‘qituvchining o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadini, uning

¹Sa’diev A.S. O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘qitish: Pedagogika oliy o‘quv yurtlari tarix kulliyotlarining o‘quvchilari uchun qo’llanma. -T.: “O‘qituvchi”, 1993 y. -16 b

ta’lim-tarbiyaviy vazifalarini aniq belgilay olishiga, kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga yordam bera oladigan usullardan ilmiy asosda foydalana bilishga bog‘liqdir. Tarix o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bu o‘zaro dialektik bog‘lanish natijasida ular bir-biriga uzlucksiz ta’sir ko‘rsatib boradi. Tarix o‘qitishda ana Shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e’tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo‘lmaydi.

Mavzuning o‘rganilish darajasi: Mavzuni yoritish jarayoniga O‘zbekistonda ta’lim standartlari masalasiga davlat miqyosida yondashilganligi va uni ilmiy yo‘sinda hal etishdan tashqari, ta’lim-tarbiya amaliyotiga joriy qilish maqsadida uzoq vaqt izlanishlar olib borilganligi , tajriba-sinovlar asosida amalga oshirilganligi ham tahlil qilindi..

DTSni joriy etish talablari rivojlangan G‘arb mamlakatlari tajribasiga asoslanadi. Ammo, Shuni ham aytish kerakki, hali dunyodagi birorta jamiyatda ta’limni standartlashtirish keng ko‘lamda amalga oshirilayotgani yo‘q. CHunonchi, mazkur yumushga birinchi bo‘lib qo‘l urgan Fransiyada bu ish hanuzgacha sinov darajasida, AQSHda esa DTS yaratishga endigina kirishilmoqda. Yaponiya va Germaniya ta’lim muassasalarida mazkur muammoni hal etish rejallashtirish bosqichida turibdi. Ko‘pchilikka ma’lumki, Birinchi prezidentimiz Islom Karimov o‘zining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XIV sessiyasida «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» mavzusidagi ma’ruzasida ta’limda davlat standartlarini sinovdan o‘tkazish va joriy etish bo‘yicha mutasaddilar oldiga quyidagi vazifalarni qo‘ygan edi:

«Yangi o‘quv yili boshlangunga qadar mazkur tajriba qanday o‘tayotganligini va uning dastlabki natijalarini chuqur tahlil etib, ta’lim andozalari, o‘quv rejalarini va dasturlari mazmuniga islohotlarning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, ya’ni yosh avlodni kamol toptirishga qaratilgan zarur tuzatishlar kiritish zarur.»²

Tarix darslarini turlarga bo‘lish, noana’anaviy darslar muammosi tarix o‘qitish metodikasi taraqqiyotining bosqichlarida metodistlar tomonidan turlicha hal etib kelindi.

²Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., O‘zbekiston, 1999.,B.37.

Darslarni turlarga bo‘lish masalasida ikki asosiy yo‘nalish mavjud edi: birinchi yo‘nalish tarafdorlari o‘qitish jarayonining qonuniyatlariga asoslanib, darslarni turlarga ajratadilar. Ularning fikricha, darslarni turlarga bo‘lishda, ularga xarakteristika berishda ko‘proq o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida tarix kursi mazmunini o‘zlashtirish jarayonining u yoki bu zvenosiga asoslaniladi. Darslarni turlarga bo‘lishning bu prinstipini S.V.Ivanov birmuncha to‘la ishlab chiqqan edi.

Ikkinci yo‘nalishning vakillaridan biri I.N.Kazansevdir. U dars turlari klassifikatsiyasiga asosan darsni o‘tkazish usullarini asos qilib oladi. Tarix o‘qitish metodikasi sohasida prof. V.N.Bernadskiy ham tarix darslari klassifikatsiyasiga metodik usullarni asos qilib oladi va tarix darslarini quyidagi turlarga bo‘ladi: o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida ma’ruzasi, hikoya qilib berish darsi, tarixiy hujjatlarni tahlil qilish, badiiy adabiyotlardan foydalanish darsi, o‘quvchilarning ma’ruzalariga asoslangan dars, prezident asarlarini o‘qish va tahlil qilish darsi, kino darsi, ekskursiya materiallari asosida o‘tkaziladigan darslar va hokazo. Shuningdek, V.N.Bernadskiy³ turli usullar yordamida o‘tkaziladigan umumlashtiruvchi takrorlash darslarini ham alohida guruhlarga bo‘ladi. Biroq, A.A.Vaginning⁴ o‘sha asarida asosli ravishda ta’kidlanishicha, dars turlari klassifikatsiyasiga, dars o‘tkazishning metodik usullarini asos qilib olib bo‘lmaydi. Chunki dars o‘tkazish metodi ham, dars turlari ham uning mazmuni va ta’lim qonuniyatları bilan belgilanadi, tanlangan o‘qitish metodi va dars tipi o‘z navbatida uning g‘oyaviy mazmuni, ta’lim-tarbiya vazifalarini ado qilishga xizmat etadi. Shunga qaramay V.N.Bernadskiy tomonidan tavsiya qilingan dars turlari, o‘sha davr uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi, negaki, tarix darslarini xilma-xil strukturada o‘tkazish mumkinligini ko‘rsatib berdi.

³Kodjaspirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablistax i opornix konspektax,- M.: Ayris-press, 2006.

⁴Kodjaspirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablistax i opornix konspektax,- M.: Ayris-press, 2006.

Didaktikada ishlab chiqilgan funksional yondaShuv metodlar tizimini yaratish uchun asos bo‘lgan bo‘lib, unda metodlar didaktik maqsadlarga erishishning nisbatan alohida yo‘llari va usullari sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotchilarimizning ilmiy yo‘ndaShuvsularini o‘rganish orqali o‘qitishning noana’naviy metodlari muammosi asoslash o‘rinli bo‘ladi⁵. Qayd etilgan mualliflar o‘z tadqiqotlarida o‘qitish metodlarining o‘ziga xosligi, uning ilm o‘rganish metodlari bilan dars berish usullari va uslublarini birlashtiradi, balki bilishning o‘quv va ilmiy faoliyatga yo‘naltirilgan tizimi ekanligini qayd qiladi, hamda, o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘larini ma’lum darajada ohib beradilar.

Tarixni o‘qitish va o‘quvchilarning uni o‘rganishini tashkil etish, ularning o‘rganish faoliyatini o‘qituvchining boshqarishiga yordam beradigan metod va metodik usullar, o‘quvchilardagi mavjud bilimlarni ishga solish va ularni ijobiy bilishga yo‘naltiradigan topshiriqlar sistemasi hamda ta’limning turli xil shakllari joriy etish asosan noana’naviy dars usullari orqali amalga oshiriladi.

Bitiruv malakaviy ishining natijalari: Kasb-hunar kollejida tarix o‘qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi; o‘quvchilarning tarix fani asoslarini, tarixiy materialga mos samarali metod va usullarini bilish va bilimlardan foydalana bilish malakalarini puxta o‘zlashtirishlari, o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini, tasavvuri va nutqini, maxsus va umumiyoq qobiliyatlarini o‘stirish ko‘zda tutiladi.

⁵ Azizzxo’jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003., Apparovich N. Poltorak D.I. Kabinet istorii i obijectov v shkole. M.: 1982., Asqarov A. O’zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari.- “O’zbekistonda ijtimoiy fanlar” 1992. № 7-8., Gaffarov Ya, Gafforova M. O’zbekiston xalqlari tarixini o‘qitish usullari.T., 1996., Ishmuhamedov R.J. Bolalarni tarbiyalash va sog’lomlashtirish ishlarda pedagogik texnologiya (o’zbek va rus tillarida). - T.: UDAP, 2004., Ishmuhamedov R.J. Innovastion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005., Yo’ldoshev J.G. Malaka oshirishning nazariyi va metodologik asoslari. (equd o‘qituvchi bo‘lish osnmi) T., 1998., Yo’ldoshev J.G’. J.G’. Yo’ldoshev. Ta’lim yangilanish yo‘lida.-T.: O’qituvchi. 2000., Yo’ldoshev J.G’, S.A.Usmov. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O’qituvchi. 2004., Yo’ldoshev J.G. Yangi pedagogik texnologiya: yo‘nalishlari, muammolari, echimlari. «Xalq ta’limi», 1998. N4, Kodjasirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablistax i opornyx konseptax,- M.: Ayris-press, 2006., Kolechenko A.K. Enstiklopediya pedagogicheskix texnologiy. Posobie dlya prepodavatelyey. - SPb: KARO, 2005., Raximov J. O’zbekiston tarixini o‘rganishda arxiv manbalaridan foydalanish.T., 1995, Rahmatullaev T. O’zbekiston xalqlari tarixini o‘rganishda arxeologiya materiallaridan foydalanish T.O’qituvchi. 1994., Sa’diev A. O’zbekiston xalqlar tarixini o‘qitish.T., 1993., Tashpulatov T. Gaffarov Ya., Tarix o‘qitish metodikasi T., 2002., Tolipov O’Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: 2006., T.A.Egamberdieva, S.V.Yo’ldoshev, D.Jo’raeva, Tashpulatov I. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va interfaol usullar / (O‘qituvchilar uchun uslubiy tavsiyanoma) I-II qism Farg’ona-2013

Shunday qilib, o‘rta umumta’lim va kasb-hunar bilim yurti tarix ta’limi jarayonining yuqoridagi umumiyligi qonuniyatlari quyidagi ob’ektiv va qat’iy takrorlanadigan aloqalarda namoyon bo‘ladi: o‘qitishning maqsadi uning mazmuni bilan beligilanadi, maqsad va mazmunga mos keladigan o‘qitish metodi va usullari tanlanadi, o‘qitishning samarasi esa o‘qitishda erishilgan qat’iy ijobiy natijalar bilan tekshiriladi, ya’ni tarixiy bilimning sifati bilan o‘lchanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy axamiyati: Tarixdan dars berish metodikasi bo‘lajak pedogoglarni umumta’lim va kasb-hunar bilim yurtlarida tarix o‘qitishning ilmiy asoslari bilan tanishtiradi. Shuningdek, jarayonni tekshirish metodlari bilan ham qurollantiradi.

Tarixdan dars berish metodikasi jarayoni ikki yo‘l bilan o‘rganiladi. Birinchisi kuzatish metodidir. Bu metoddan foydalanilganda turli xildagi o‘quv-uslubiy adabiyotlar, o‘quvchilarining yozma ishlari, referatlari, dokladlari, kompyuter kompakt disklaridagi yozuvlar o‘qitishga berilgan baho va chiqarilgan xulosalar bilan tanishib chiqiladi, darslar kuzatiladi, o‘quvchilarining bilimi va malakalari o‘rganiladi.

Kuzatish metodidan foydalanilganda tarixdan dars berish metodikasini mavjud tajribasi doirasidan chetga chiqilmaydi, tabiiy ravishda ushbu tajriba o‘rganiladi.

Ikkinchisi eksperiment metodi. O‘qituvchi o‘qitish jarayonini o‘zi xohlaganicha uyushtiradi. Bu katta mas’uliyat talab etadigan, tajribali pedagoglarga xos bo‘lgan metoddir, albatta. Pedagog ijodiy ish qiladi va uning bu ishi ilmiy eksperimentga o‘xshab ketadi. Biroq, o‘qituvchi qilgan ijodiy izlanishning ilmiy eksperimentdan farqi, avvalo Shundaki, o‘qituvchi darsda amaliy vazifani hal qiladi, uning xulosalari esa, o‘z faoliyatining natijasi bo‘ladi.

Tarixdan dars berish o‘quvchilarga tarixiy voqeylekni bildirishdan iboratdir. O‘qitish jarayonida o‘quvchilar tarix fanini va uning ba’zi tadqiqot metodlarini bilib oladilar. Bitiruv malakaviy ishimiz umumiyligi o‘rta ta’lim, kasb-hunar kollejlarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni o‘rgatish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarga

oid bilimlarini yanada mustahkamlash, ularga pedagogik mahorat sirlarini ochib berish, pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyatga joriy etishda yosh pedagog-o‘qituvchilarning kasbiy malakasi va mahoratini oshirishga amaliy yordam ko‘rsatadi degan umiddamiz.

Bitiruv malakaviy ishining o‘rganish ob’ekti. Tarixdan dars berish metodikasi tarix fanining ba’zi bir tekshirish metodlaridan foydalanib, o‘quvchilarning bilimlarini yaxshiroq o‘zlashtirishlarini va ularning tarix fanini ba’zi tadqiqot metodlari bilan tanishtirishni ko‘zda tutadi. O‘quvchilarning yangi faktlarni tahlil etish va ulardan zarur xulosalarni chiqarish paytida o‘rgangan bilimlari juda ham mustahkam va ishonarli bo‘ladi, Shuningdek, o‘quvchilar mustaqil fikrlashga o‘rganadi. Bu ularni tadqiqot olib borishning dastlabki usullari bilan tanishtirishga yordam beradi.

Tarixdan dars berishda o‘quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyati va umuman psixik faoliyatini e’tiborga olmasdan turib, ularning o‘quv faoliyatiga samarali ta’sir etib bo‘lmaydi. Shu sababli metodika psixologiya fani bilan chambarchas bog‘langan.

Tarixdan dars berish jarayonida ustoz bilan shogirdlar o‘rtasida ma’naviy yaqinlik, sog‘lom va tetik kayfiyat vujudga keltirilishi o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini aktivlashtiradi, darsning samaradorligini oshiradi. Pedagogik jarayon ham o‘qitishda yaxshi natijalarga erishishni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng, huquqiy demokratik davlat barpo etmoqda. Respublikada amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning asosiy maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi inson, uning har tomonlama rivojlanishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoit va ta’sirchan mexanizmlar barpo etilishi, eski tafakkur va ijtimoiy hulq-atvorni o‘zgartirishdan iborat.

Tadqiqotning tuzilishi. BMI kirish, ikkita asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I bob: Tarix darslariga ilmiy yondoshuvlarning maqsad va vazifalari

I.1. Tarix darslariga ilmiy yondoshuvtar

Tarix darslari samaradorligini oshirib borish uchun o‘qituvchi tarix fanining rivojlanib borishini sistemali ravishda kuzatib bormogi kerak. Ayniqsa yuqori sinf o‘quvchilarini tarixdan chop etilayotgan yangi asarlar mazmuni bilan tanishtirib borishlari o‘quvchi yoshlarda tarix o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada o‘sishga olib keladi.

Ko‘p yillar davomida kasb-hunar kollej tarix kurslarini o‘qitish tajribasi Shuni ko‘rsatadiki, tarixdan o‘tkaziladigan ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va samaradorligini oshirib borish, Shuningdek kutilgan ijobiy natijalarga erishmoqning asosiy shakli - darsdir. O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish, ularning bilish qobiliyatlari va tafakkurlarini muttasil rivojlantirib borish yuzasidan turli ilmiy-uslubiy ishlar asosan dars jarayonida amalga oshirib boriladi.

Har bir dars tarixdan o‘rgatilayotgan alohida olingan mavzuning, bir vaqtida butun bir kurs yuzasidan o‘tkaziladigan darslar sistemasining mantiqan shakllanib boradigan yagona zanjirini tashkil etadi. Tarix darsiga bo‘lgan talablar jamiyatda sodir bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar talabi darajasida, Shuningdek, ilm-fan, madaniyat va ayniqsa ma’naviyatda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar talabi asosida doimo rivojlanib boradi. Mazkur o‘rinda biz O‘zbekiston va jahon tarixini o‘rganish jarayonida mustaqil o‘zbek davlatini rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlariga qanday yondoshmogimiz va amaliy jihatdan bu dolzarb vazifani qanday hal etilishi muammolarini sezib turibmiz.

Dars samaradorligini oshirish har bir o‘qituvchidan ta’lim-tarbiya jarayonini optimal, ya’ni qulay variantlarni puxta ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadi. Darsning optimal varianti deb, dars jarayonida ta’lim-tarbiya va o‘quvchilarni kompleks rivojlanishlarini ta’minlaydigan va bir vaqtida darsning Shunday ijobiy natijalarini amalga oshirishda shu dars (mavzu) uchun o‘quv rejasи, Shu fanda tematik kalendar rejada mo‘ljallangan mavzuni o‘rganishga dars davomida Shu darsga, uy vazifalarini bajarish va tekshirish uchun o‘quvchi va

o‘qituvchiga ajratilgan vaqtdan maqsadga muvofiq foydalanimlib, erishilgan maksimal ijobiy ilmiy-uslubiy va didaktik natijalar kompleksiga aytildi.

Har bir darsni o‘qituvchi tomonidan sifatli qilib o‘tmoq uchun unga yaxshilab tayyorgarlik ko‘rish kerak. Tarix kursidan tematik rejalarini tuzish o‘qituvchining darsga tayyorgarlik ko‘rishining birinchi bosqichi bo‘lib, bu bosqichda o‘qituvchi dastur, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini o‘rganadi, ular orasidagi mutanosiblikni solishtirib chiqadi. Natijada o‘quv dasturiga asoslangan o‘qituvchi darslikda nimalar ortiqchayu, nimalar etishmasligini va uni qanday to‘ldirish lozimligi muammolarini hal etadi. O‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlarida ta’lim mazmunini takomillashtirish, uning tarbiyaviy yo‘nalishini kuchaytirish bilan birga, o‘qitish metodlarini ham aktivlashtirish asosiy vazifa qilib qo‘yildi.

Endilikda, ta’lim mazmuni insoniyat to‘plagan tayyor bilimlar, ko‘nikma va malakalarni puxta egallash bilan birga, o‘quvchilarining mustaqil fikr yuritish, ijodiy ishlash qobiliyatlarining o‘sishini ta’minlay oladigan ijodiy faoliyatni ham o‘zida birlashtirmog‘i lozim. Ta’limning rivojlanish tamoyillariga ko‘ra, o‘quvchilarini mustaqil fikrlash va ijodiy ishlay bilishga o‘rgatish va ularda zarur ko‘nikma, malakalarni yuzaga keltirishda ta’lim mazmuni bilan birga o‘qitish metodlari ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘qitish metodlari murakkab muammo bo‘lib, o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida oldiga qo‘yilgan mas’uliyatli vazifalarning hal etilishi ko‘p jihatdan uning to‘g‘ri hal qilinishiga bog‘liqdir. Biroq, hozircha o‘qitish metodikasining bu muhim problemasi, xususan tarix o‘qitish metodlari sistemasi etarli darajada ishlab chiqilmagan. Metodik adabiyotda metodistlar tomonidan «Metod», «Metodik usullar» tuShunchasi turlicha talqin etiladi va klassifikatsiya qilinadi.

O‘qitish metodikasida tarix ta’limi metodlari sistemasining etarli darajada ishlab chiqilmaganligi va bu sohada yagona fikr bo‘lmaganligi o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida tarix o‘qitish amaliyotida jiddiy kamchiliklarga olib keldi. Ko‘p hollarda o‘qituvchilar o‘qitish metodlari va usullarini tanlashda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga faqat tayyor bilim berish, ya’ni ularni

o‘qitish (ta’limning bir tomonini)ni ko‘zda tutib, o‘quvchilarning o‘rganishi (ta’limning ikkinchi muhim tomonini)ni uyushtirish, unga rahbarlik qilish, bilish, malaka va qobiliyatlarini sistemali ravishda o‘sirib borish kabi muhim jihatlarini e’tibordan chetda qoldiradilar. Shuningdek, o‘qitishning metod va usullarini tanlashda o‘quv materialining mazmunidagi o‘ziga xosliklarni, uning ta’lim-tarbiya vazifalarini, o‘quvchilarning bilimi va malakalarini e’tiborga ola bilmaslik hollari ham Shunday jiddiy kamchiliklar jumlasidan edi. Bu hol ma’lum darajada o‘quvchilarning tarix predmetiga qiziqishlari pasayishiga, umumiyligi ta’lim-tarbiya ishlarining natijasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida amaliyotda, ayniqsa keyingi yillarda o‘quvchilarni tarix predmeti vositasida tarbiyalashda, uni o‘qitishni ilmiy asosda olib borish, ta’lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish sohasida ko‘pgina ilg‘or tajribalar to‘plandi va umumlashtirildi.

Belgilab bergen muhim vazifa-tarixiy bilimlarning samaradorligi va sifatini oshirishning muhim sharti va vositalaridan biri bo‘lgan bu ishlar tarix o‘qitish metodlari sistemasini va metodik usullarini ham ilmiy asosda ishlab chiqish va amalda ulardan muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyatini beradi.

O‘qitish metodlarini ilmiy asosda klassifikatsiyalash masalasi pedagogika fanida o‘qitishning turli bosqichlarida turlicha hal qilib kelindi. O‘qitish metodlari klassifikatsiyasiga ba’zan analiz va sintez, dedukstiya va indukstiya kabi mantiqiy operastiyalar asos qilib olinib, o‘qitish metodlari induktiv, analitik va boshqa mantiqiy usullar sifatida xarakterlanadi. O‘qitish metodiga bu xil qarash, A.Vagin ta’kidlaganidek, tarix o‘qitish metodikasida tan olinmadi. O‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida tarix o‘qitish tajribasi Shuni isbotladiki, yuqoridaqgi mantiqiy operastiyalar o‘qitish va o‘rganishning barcha bosqichlarida turli xarakterdagи xilmoxil didaktik va metodik vazifalarni hal qilishda ishtiroy etsada, mustaqil o‘qitish metodlari bo‘lib xizmat qila olmaydi.

O‘qitish metodlarini ba’zan o‘quvchilarning bilish faoliyati, faollik darajasiga qarab klassifikatsiyalash tavsiya qilinadi.

Bu tarzda ajratish o‘qitish metodlaridan ko‘ra, ko‘proq o‘qitishning umumiyligiga xarakteriga taalluqlidir.

Metodist A.I.Strajev quyidagi o‘qitish metodlarini tavsiya qiladi:

- 1) tarixiy faktlarni o‘rganish metodlari;
- 2) xronologiyani o‘rganish metodlari;
- 3) mahalliy tarixiy voqealarni o‘rganish metodlari;
- 4) asosiy tarixiy tuShunchalarni shakllantirish metodlari;
- 5) sabab-natija aloqalarni o‘rganish metodlari;
- 6) tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari⁶.

Ma’lumki, tarix o‘qitish va o‘rganishni tashkil etish jarayonidan iborat.

Metodist A.Strajevning klassifikatsiyasidan ham ko‘rinib turibdiki, u faqat o‘qituvchining o‘quvchilarni o‘qitishini ko‘zda tutadi, o‘quvchilarning o‘rganishini tashkil etish va ularning o‘rganishiga o‘qituvchining rahbarlik qilishini e’tiborga olmaydi.

Metodist V.G.Karsev bu masalada boshqacha yo‘l tutadi. U metodlar sistemasiga o‘quv harakteriga ega bo‘lgan belgilar («Bayon qilish metodi», «so‘rash metodi») va umumiyligida didaktiv vazifalar («materialni o‘rganish metodi», «mustahkamlash metodi», «bilimni tekshirish metodi» va boshqalar) ni emas, balki o‘quvchilarning tarixiy voqealarni bilish qonuniyatlarini asos qilib oladi. Metodlar haqidagi nazariyaning metodologii asosini, ya’ni jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o‘tish tashkil etadi. Binobarin,- deb hisoblaydi V.G.Karsev,- o‘quvchilarda tarixiy tasavvur va tarixiy tuShunchalarni shakllantirish metodlari haqidagi masala metodikaning markaziy masalasi bo‘lishi keraq Shu asosda u, o‘quvchilarda tarixiy tasavvur va tuShunchalarni shakllantirishning 4 guruhi borligini aytadi⁷:

- 1) tarixiy tasavvurlar va tuShunchalarni shakllantirish metodlari; 2) umumiyligida tuShunchalarni shakllantirish metodlari; 3) vaqt va fazoda tarixiy rivojlanish

⁶ Kodjaspirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablistax i opornyx konspektax,- M.: Ayris-press, 2006.S.34

⁷ Jo’raev R.H., Zunnunov A. Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalashtirish omillari. O‘qituvchilar uchun o‘quv qo’llanma. –T.: SHarq, 2005.-80 b.

dialektikasini olib berish metodlari; 4) tarixni zamonaviy voqealar bilan bog‘lash metodlari; 5) tarixiy bilimlarning hayot va amaliyatda qo‘llanilishi.

Tarixiy xujjatlar ustida olib boriladigan ishlar o’qituvchi bayonini mazmunan boyitadi, dolzarbligini oshiradi, o’quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi va ularning darslik matnini osonroq va puxta o’zlashtirib olishlariga yordam beradi. XIX asrning 60-yillarida Rossiyada M.M.Stasyulevich va boshqa ilg’or o’qituvchi va metodistlar o’tmishni tarixiy hujjatlar asosida mustaqil o’rganishning real metodikasini taklif etib, uni o’sha vaqt dagi darsliklar asosida o’qitish usuliga qarama-qarshi qilib qo’yadilar.

XX asr boshlariga kelib, tarixiy hujjatlarni mustaqil o’rganish g’oyasini metodist N.Rojkov davom ettirib, tarixni manbalar asosida o’rganishning «laboratoriya» metodini olg’a surdi. Mayjud darsliklarni yod oldirish sistemasiga qaraganda bu harakatlar progressiv qadam edi. Biroq, bu metodlarning tarafдорлари ham o’quvchilarning tarixni mustaqil o’rganish faoliyatlariga ortiqcha baho berib yuborgan edilar.

1920-1930 yillar maktablarida tarixiy voqealar sistemali bayon qilib berilgan darsliklar o’rniga «ishchi kitoblar» tavsiya etildi.

1934 yildan keyingina metodika «laboratoriya» va «tadqiqot» metodlarini o’qitishning bosh metodi qilib qo’yishni inkor etish bilan birga, tarixiy hujjatlar bilan ishslash tarix o’qitishning usullaridan biri ekanligini ta’kidladi.

Tarixiy hujjat avvalo, o’qituvchining bayonini aniqlashtirish, chuqurlatish va unga aniqlik kiritish uchun xizmat kiladi, bayonning ishonchli va emostional bo’lishini ta’minlaydi, o’tmishning yorqin obrazlarini, tarixiy voqealarning yaxlit manzarasini gavdalantirishga, o’rganilayotgan davr xususiyatlarini anglab olishga yordam beradi. Hujjat ustida ishslash o’quvchilarni faktlar va hodisalarini mustaqil ravishda aniqlashga, ularni puxta anglab olib, xulosalar chiqarishga o’rgatadi. Shu bilan birga hujjat ma’lum vaziyatni aniqlashga, ahamiyatini bilib olishga, tarixni ob’ektiv nuqtai nazardan tuShunishga yordam beradiki ularning bilish faoliyatini, fikrlashini faollashtiradi, o’quv ishlari faoliyatining yangi usullari bilan qurollantiradi, zarur

bo'lgan malaka davrimizning ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi hujjatlarini o'qib, tuShunib olish malakasini hosil qiladi.

Tarixiy hujjatlar bilan ishslashning yana bir muhim tomoni Shundaki, bu ish o'quvchilarni tarixiy tadqiqot metodining elementlari bilan tanishtiradi hamda ularni tarixiy hujjatlarga tanqidiy qarashga o'rgatadi.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida ta'limning yangi mazmuni amalga oshishi munosabati bilan tarix o'qitishda tarixiy hujjatlarning axamiyati yanada oshdi. Yangi dastur asosida yozilgan darsliklar mazmunining asosiy qismini tarixiy hujjatlar tashkil etadi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham tarixiy hujjatlar bilan ishslash zaruriy bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu ish o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tajribasida ommaviy tus oldi.

Darsliklardagi tarixiy hujjatlar har bir sinfdagi o'quvchilarining yoshi, bilim saviyasi, o'sha sinfda o'rganiladigan tarix kursining xususiyatlariga qarab kiritilgan. Shu sababdan darsliklardagi tarixiy hujjatlar o'zlarining xarakteri, ko'lami va mazmuni jihatidan bir-biridan farq qiladi.

O'quvchilarining yoshi, bilimi va ularning tarixiy hujjatlar bilan deyarli bиринчи мarta tanishishlarini e'tiborga olib, darslikka asosan hikoya va tavsiflab berish xarakteridagi hujjatlar kiritilgan. Tarix darsligiga kiritilgan hujjatli manbalarni asosan uch guruhga bo'lish mumkin: 1) moddiy madaniyat buyumlari, 2) tasviriy san'at asarlari, 3) yozma manbalar.

1) *Moddiy madaniyat buyumlariiga* — bizgacha saqlanib kelayotgan yoki ilmiy asosda qayta tiklangan burungi mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, zeb-ziynat buyumlari, uy-ro'zg'or anjomlari, turar joylar, qo'rg'onlar, maqbaralar, qadimgi shahar xarobalari va boshqalar kiradi. O'quvchilar mehnat qurollari va boshqalarga qarab, odamlarning mashg'ulotlarini, hashamatli imoratlar va pastqam kulbalarga qarab sinfiy bo'linish mavjudligini, diniy marosimlarga va kishilarning dafn qilinishidagi rasm-rusumlarga doir topildiqlar asosida o'sha zamondagi diniy e'tiqodlarini bilib oladilar.

2) *Tasviriy san'at asarlariiga* — moddiy voqelikni, odamlar va ularning bir-biriga munosabatini hamda ularning tevarak-atrofidagi narsalarni — har xil

buyumlarni, geografik muhitni bevosita tasvirlab beruvchi asarlar, odamlarning har xil ruhlar, arvoqlar, jinlar, alvastilar, afsonaviy qahramonlar, devlar va hokazolar haqidagi xayoliy tasavvurlarini aks ettiruvchi asarlar kiradi.

3) *Yozma manbalar* — qonunlar, buyruqlar, ho'jalik ishlariga doir yozuvlar, shartnomalar, xizmat vazifasiga oid yozishmalar, siyosiy nutqlar, sud hukmlari, yilnomalar, xronikalar, memuarlar, shahar va mamlakatlar tasvirlab yozilgan asarlar, xatlar va yozuvlar kiradi. Qadimgi dunyo tarixida berilgan bu hujjatli materiallar o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda muhim o'rinni tutadi.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning har bir yangi bosqichida darsliklardagi hujjatli materiallarning xarakteri o'zgarib, ko'lami ortib va murakkablashib boradi. Bu darsliklarda hikoya va tasviriy xarakterdagi hujjatlar kamayib, xo'jalik va yuridik xarakterdagi hujjatlarning salmog'i ko'paytirilgan.

O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish tajribasida tarixiy hujjatlar bilan ishslashning quyidagi ikki usuli, ya'ni tarixiy hujjatlardan o'qituvchining bayonida foydalanish usuli bilan o'quvchilarning matn ustida ishslash usuli qo'llaniladi.

O'qituvchi o'zining bayonini konkretlashtirish va uning emostionalligini oshirish maqsadida hujjatlardan olingen parcha, jumla, ifodalardan, yorqin obrazlar va xarakteristikalardan foydalanadi. Foydalilanigan xujjatlarning hammasining ham manbalarini aytish shart emas, «solnomachilar», «zamondoshlarining» ma'lumotlariga qaraganda degan umumiylar iboralar bilan chegaralanilsa kifoya.

O'quvchilarini ko'proq memuar harakteridagi materiallar, tarixiy voqealarning zamondoshlari va qatnaShuvchilari bergan ma'lumotlar qiziqtiradi. Foydalilanigan tarixiy hujjatning ko'rsatmasi bo'lishi kerak bu ko'rsatma o'qituvchi bayonining ko'rsatmali va ifodali bo'lishini ta'minlaydi.

Tarixiy hujjat o'qituvchi bayonini, bayondagi harakteristika va chiqarilgan xulosalarini tasdiqlaydi.

O'qituvchi darslik yoki xrestomatiyadan olingen hujjatning mazmuni va o'quvchilarning tayyorgarligiga qarab uni tahlil qilishi, sinf o'quvchilariga hujjat yuzasidan savollar berishi yoki umumlashtiruvchi analitik suhbat yordamida tahlil

qilishi mumkin. Tarixiy hujjatlar ustida ishlashda o'quvchilar ularni nima uchun xizmat qilishini, tanishilayotgan hujjatlar qachon va kimlar, qaysi tabaqa namoyandalari tomonidan yaratilganini, ulardan nimalarni bilib olish mumkinligini, qanday masalalarni bilib olishda hujjatlarga murojaat qilish kerakligini anglab, tuShunib olishlari lozim. Agar hujjatlarda tuShunish qiyin bo'lgan terminlar uchrab qolsa, ular doskaga yozib tuShuntiriladi, o'quvchilar lug'at daftarchasiga yozib oladi.

Tarixiy hujjatlar ustida ishlashning turli usullari bor.

1. O'qituvchi tarixiy hujjatni o'zi tahlil qilib berishi mumkin.
2. Tarixiy xujjatlarni o'qituvchining bevosita rahbarligida o'quvchilar darsda tahlil qilishi mumkin.
3. O'qituvchi o'quvchilarga ma'lum hujjatlarni uyda mustaqil tahlil qilib kelishni topshirishi mumkin.

TuShunish qiyin bo'lgan murakkab tarixiy hujjatlarni o'qituvchining o'zi o'qiydi, tahlil qilib izohlab beradi. O'quvchilar matnni kuzatib borishadi va o'qituvchining tuShuntirishlarini diqqat bilan tinglaydilar. Yuqori sinflarda hujjat izoh berib o'qiladi. O'qituvchi hujjat yuzasidan o'quvchilarga savollar berib, problemalar qo'ysa, o'quvchilarning bilish va fikrlash faoliyati aktivlashadi. O'rta maxsus ta'lim tizimida o'qituvchi hujjatni o'zi tahlil qilib beradi, ammo Shu bilan birga o'quvchilarni hujjatlar bilan ishlashga ham o'rgatadi.

O'qituvchi hujjatlar bilan ishlashning yana bir usulini, ya'ni hujjatlarni o'quvchilar bilan birga tahlil kilish usulini qo'llaydi. Har bir matnda ham oson va murakkab joylar bo'ladi. Matndagi murakkab joylarni o'qituvchining o'zi yoki suhbat yordamida savol - javob yo'li bilan tuShuntiradi. Oson joylarini o'quvchilarga mustaqil o'qib o'rganishni vazifa qilib topshirish mumkin.

O'quvchilarga ularning bilim va malakalariga yarasha tuShunarli hujjatlar tanlab berilgan va hujjatlar ustida mustaqil ishlashni ilgari ham mashq qilib ko'rgan bo'lsalar o'qituvchi vazifa qilib bergen hujjatlarni mustaqil o'qib, puxta tuShunib olishlari mumkin. Lekin bunda ham o'qituvchi bu ishga rahbarlik qiladi, qiyin joylarini o'qituvchi rahbarligisiz, oson joylarini o'quvchilarning o'zlari mustaqil o'rganadilar.

Xo'jalik, yuridik va Shu kabi boshqa qiyinroq xarakterdagi hujjatlar o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi.

O'quvchilarning darsda va uydagi mustaqil ishlariga talab ortib boradi. Tarixiy hujjatlar asosida qisqacha axborot va referatlar tayyorlash, hikoya qilishga tayyorlanish, sxematik plan va boshqa grafika ishlarini bajarish, insho yozish va h. q. O'quvchilarning hujjatlar ustidagi mustaqil ijodiy ishlari qatoriga kiradi. O'quvchilarni xujjatlarni o'rganishga qiziqtirish, bunga ularda ishtiyoq uyg'otish kerak. Buning uchun ularga xujjatlar ma'lum davrning moddiy yodgorligi va yangi bilimlarni egallashning muhim manbalaridan biri ekanligini alohida uqtirish lozim. Hujjatni o'rganishda uning kim tomondan, qachon, qaysi sinf manfaatini ko'zlab yoki nuqtai nazaridan yaratilganini, o'sha vaqtdagi mamlakatning ichki va tashqi ahvolini tuShuntirib berish zarur.

O'quvchilar qadimgi dunyo tarixining kirish qismida yozma manbalar haqida ma'lum tuShuncha hosil qiladilar. Keyinchalik bu tuShunchalar har xil yozma yodgorliklarni o'rganib borish, turli muzey va arxivlardagi yozma yodgorliklar bilan tanishish jarayonida konkretlashib, boyib, kengayib boradi.

Shunday qilib, tarixiy hujjatlar o'qituvchi bayonini aniqlashtiradi, mazmunini chuqurlashtiradi, unga aniqlik kiritadi, ishonarli va emostional bo'lishini ta'minlaydi, o'quvchilarning bilish faoliyatini, fikrlashini faollashtiradi, bilimlari puxta va mustaxqam bo'lishiga yordam beradi, bilim olishning yangi usullari, ilmiy tadqiqot shakllari bilan tanishtiradi.

Metodist P.S.Leybengrub ta'lim manbalari, ya'ni bilish manbalari asosida o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning quyidagi metodlarini ko'rsatadi:

- 1) hikoya metodi va o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida lekstiyasi;
- 2) suhbat metodi;
- 3) ko'rsatmali metod;
- 4) darslik bilan ishslash metodi;
- 5) tarixiy hujjatlar bilan ishslash metodi;

6) badiiy adabiyotlardan foydalanish metodi.

P.S.Leybengrub nimagadir, og‘zaki bayon qilish metodlarining hammasini hikoya va lekstiyadan iborat qilib qo‘yadi. A.Vagin o‘zining tarix o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan kitobida ana Shu **kamchilikni** to‘ldiradi. A.Vagin tarix o‘qitish metodlari klassifikatsiyasiga bilim olish manbalari bilan birga, bilim olish usulini ham asos qilib olgan. U o‘qitish metodlarini quyidagi uch guruhga bo‘ladi:

- 1) jonli so‘z: hikoya, tavsiflash, harakteristika, muammoli bayon;
- 2) ko‘rsatmali metodlar: rasmlar va boshqa ko‘rsatmali qurollar, doskaga chiziladigan grafik yozuvlar, texnika vositalari va boshqalar;
- 3) matnlar bilan ishslash metodlari.

A.Vagin o‘qitish metodlari klassifikatsiyasiga bilim manbalari va bilish usullarini asos qilib olish bilan birga, bilish manbalari didaktik vazifalarga muvofiq o‘qitish jarayonining asosiy bosqichlarida qay tariqa aniq amalga oshirilishini jadval shaklida beradi. Bu jadval har bir darsda o‘tiladigan materialning mazmuniga qarab o‘qitishning turli xil metod va usullaridan foydalanish zarurligini aniq ko‘rsatadi. Keyingi yillardagi o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida tarix o‘qitish tajribasi A. Vagin tavsiya etgan o‘qitish metodlarining juda real ekanligini ko‘rsatdi⁸.

Metodist P.V.Gora pedagogika nazariyasi va praktikasida erishilgan yutuqlarga suyanib, o‘qituvchining o‘qitishi va o‘quvchilarning o‘rganishi (bilish faoliyati) bilan o‘zaro organik bog‘langan metod va metodik usullarni tavsiya qiladi. O‘qitish metodlarining Shu taxlilda klassifikatsiya qilinishi o‘qitichuvchilarni puxta bilim va zarur malakalar bilan quollantirish imkoniyatini beradi. Shuningdeq o‘qituvchini o‘quv materialining mazmuni, o‘quvchilarning bilimi, malakalari va qobiliyatlarini ham hisobga olish va rahbarlik qilishiga yordam beradi.

O‘qitishning metod va usullarini tanlashda o‘quv materialining mazmunini, uni o‘rganishning maqsadini asos qilib olish, masalaga tarixiy-metodik mezon bilan yondoshish va hal etish zarurligi ko‘rsatiladi.

⁸ Jo’raev R.H., Zunnunov A. Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalashtirish omillari. O‘qituvchilar uchun o‘quv qo’llanma. –T.: SHarq, 2005.-88 b.

O‘qitishning metod va usullarini tanlashda Shuni nazarda tutmoq kerakki, o‘quvchilar esda saqlab qolishi zarur bo‘lgan bilimlarni Shunchaki bayon qilib qo‘ya qolish bilan maqsadga erishib bo‘lmaydi. O‘qitish jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish, ularni amaliy faoliyatga tayyorlash, o‘rgatish ham lozim. Ularda mustaqil ijodiy izlanish, yangilikka intilishni kuchaytirish, hali jamiyatga ma’lum bo‘lmagan bilish usullarini qidirib topish va amaliy faoliyatga joriy eta bilish qobiliyatini ham rivojlantirish kerak.

I.YA.Lerner o‘qitish metodlarini 5 guruhgaga bo‘ladi.

1. Bayon -illyustrastiya metodi,
2. Reproduktiv metod,
3. Ilmiy-tadqiqot metodi,
4. Qisman izlanish yoki evristik metod,
5. Muammoli ta’lim yoki muammoli o‘qitish.

O‘qitishning birinchi va ikkinchi usulida o‘quvchilar o‘rganiladigan materialni puxta esda saqlab qolishlari va uni qayta so‘zlab berishlari mumkin. O‘qituvchi tuShuntirib beradigan tayyor bilimlarni tuShunib olish qiyin emas, ularni faqat esda saqlab qola bilish keraq xolos. Bu usulni muhim tomoni Shundaki, u nisbatan qisqa vaqt ichida katta ko‘lamdagи tarixiy bilimlarni o‘rganish va o‘quvchilar diqqatining rivojlanishiga yordam beradi. Ammo bu usul o‘quvchilarda, ayniqsa yuqori sinf o‘quvchilarida tarixni o‘rganishga qiziqish uyg‘ota olmaydi, ularning tafakkuri, bilish, malaka va qobiliyatları rivojlanishini ta’minlay olmaydi.

Muammoli ta’lim yoki muammoli o‘qitish usuli birinchi usuldan ko‘ra samaralirokdir. O‘qituvchi o‘quv materialini bayon qila turib, o‘quvchilar oldiga muammoli savollar qo‘yadi, o‘quvchilar bilan birga uni hal qilish yo‘llarini topadi, boshqacha qilib aytganda, o‘qituvchi o‘quvchilarga tarixiy bilimlarni tuShuntirish bilan birga, ularni Shu bilimlar ustida o‘ylashga majbur etadi, ularning fikrlash faoliyatini faollashtiradi, qiziqishlarini orttiradi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida muammoli va mantiqiy vazifalarni bajarish jarayonida mustaqil mulohaza qilish va mustaqil fikrlashga o‘rganadi. Bularning hammasi o‘quvchilarning tarixiy fikrlashiga,

tadqiqot ishlarining dastlabki oddiy malakalarini egallab olishlariga yordam beradi. O‘quv-tekshirish ishlari ham turli usullar yordamida amalga oshiriladi.

O‘qitish metodlariga ta’rif berganda birinchi navbatda u o‘qituvchining o‘qitishi va o‘quvchilarining o‘rganishi yoki bilish faoliyati usullaridan iborat ekanligini nazarda tutishi kerak. Haqiqatan ham, o‘qituvchi ko‘rsatmali vositalar yordamida so‘zlab berish yoki qandaydir amaliy harakatlarni ko‘rsatish, ularni tuShuntirib borish jarayonida o‘zi faol fikrlash bilan birga, o‘quvchilarining ham fikrlash faoliyatini qo‘zg‘atadi va o‘quv materialining o‘zlashtirilishiga rahbarlik qiladi, ularning bilim va malakalarini o‘zlashtirib olishlariga yordam beradi. Binobarin, o‘qitish metodlariga o‘qitish va o‘rganish usullari hamda o‘qituvchi va o‘quvchilarining tafakkur qilish faoliyati asos qilib olinadigan bo‘lsa, uni quyidagicha ta’riflash mumkin.

O‘qitish metodlari- o‘qituvchining faol fikrashi asosida o‘quvchilarini o‘qitishga, o‘quvchilarining ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishi va amalda qo‘llay bilishlariga, dunyoqarash va e’tiqod hosil qilishlariga, aqliy va jismoniy mehnat, ko‘nikma va malakalarini egallahshlariga, bilish va ijodiy qobiliyatları o‘sishiga yordam berishni ta’minlovchi usullaridan iboratdir.

O‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida ta’lim metodlari tizimidan keng foydalilanilgan taqdirdagina ta’lim-tarbiya ishlari sohasida yaxshi natijalarga erishish mumkin. O‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimida **ta’lim metodlari tizimi deb, eng muhim umumiy belgilari bilan o‘zaro bog‘langan, bir-biriga ta’sir ko‘rsatadigan metodlar guruhiga aytildi**. Bu metodlarning umumiy muhim belgilari - o‘qitish va o‘rganish usullari hamda o‘qituvchi va o‘quvchilarining tafakkur faoliyatidan iboratdir.

Bir-biri bilan bog‘langan o‘qitish metodlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) og‘zaki o‘qitish metodi, bu metod o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi:
 - a) og‘zaki ta’lim metodi; b) bosma matnlar yordamida o‘qitish metodi;
- 2) ko‘rsatmali ta’lim metodi;
- 3) ta’limning amaliy metodi.

O‘qitish usullari va o‘quvchilar tafakkur faoliyatining turli shakllari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va ularning bir-biriga ko‘rsatadigan ta’siri asosida bir tizimdagи metodlarning o‘zaro bog‘liqligi yuzaga keladi. O‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimi tajribasida ko‘rsatmali o‘qitish deyarli hech qachon o‘qituvchining bayonisiz qo‘llanilmaydi, o‘qituvchining bayoni ham doim ko‘rsatmali vositalarga suyanadi. O‘quvchilarning texnika vositalari, matnlar va boshqalar ustidagi amaliy faoliyati ta’limning ko‘rsatmali va og‘zaki usullari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

I.2. Ta’lim texnologiyasi va o‘qituvchi

Pedagogikaga oid adabiyotlarda o‘qitish metodlariga katta ahamiyat beriladi. Didaktika bilan Shug‘ullanuvchilar metodni o‘quv jarayonining o‘zagi, ko‘zlangan maqsad va pirovard natijani bog‘lovchi vosita deb izohlaydilar. **O‘qitish metodi “o‘qitishning maqsadi – mazmuni, metodi, shakli, usullari” tizimida muhim o‘rin egallaydi.**

Metod deganda, ta’limda maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo‘llari, usullari tuShuniladi. O‘qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. **Usul** – metodning unsuri bo‘lib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo‘llanadi va alohida qadam hisoblanadi.

O‘qitish metodi – murakkab, ko‘p qirrali, ko‘p sifatlarga ega bo‘lgan ta’limdir. O‘qitish metodida o‘qitishning ob’ektiv qonuniyatları, maqsadları, mazmuni, tamoyillari, shakllari o‘z aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga dialektik bog‘liq va biri bshqalarini taqozo qiladi, ya’ni o‘qitishning maqsadi, mazmuni, shakli hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga aks ta’sir ko‘rsatadi.

Metodlar tuzilmasida *ob’ektiv va sub ’ketiv jihatlar* ajralib turadi.

Metodlarning *ob’ektiv jihatlarida* barcha didaktik qoidalar, qonunlar va qonuniyatlar, tamoyillar va ta’riflar, Shuningdek, mazmun butunligining doimiy komponentlari, o‘quv faoliyatining shakllariga xos bo‘lgan umumiy jihatlar aks etadi.

Metodlarning *sub'ektiv jihat* pedagog shaxsi, ta'lif oluvchilarning o'ziga xosligiga va konkret sharoitga bog'liq bo'ladi.

O'qitish metodlarining ko'p o'lchovliligi ularning ko'plab tasnifini keltirib chiqardi. O'qitish metodlari tasnifi - bu muayyan belgilar asosida tartibga solingan tizimdir.

Didaktik tadqiqotlar o'qitishni dialektik jarayon sifatida o'rghanadi. Bunga ko'ra o'qitish metodlari tizimi dinamikada, harakatda, ta'lif mazmunida yuz berayotgan barcha o'zgarishlarni hisobga olingan holda deb qaraladi.

Shunday qilib, tarixiy meros, pedagogik hayot, chet el va o'z tadqiqotchilarimizning ilmiy mahsulotlari o'qitishning quyidagi metodlarini belgilash mumkinligini ko'rsatadi: Oliy va kasb-hunar kollejdagi o'qitish metodlari muammosi ko'p sonli tadqiqotlarining mavjudligiga qaramasdan hali to'la hal etilganicha yo'q. Bu o'qitish metodlarining dialektikligi, kasb-hunar kollejdagi ta'lif mazmunining takomillaShuvi, ilmiy-texnik taraqqiyotning o'sib borishi bilan izohlanadi.

Kasb-hunar kollejdagi o'qitish metodlari muammosini hal qilishdan avvalkasb-hunar kollejdagi o'qitish metodlarining o'ziga xosligini asoslash o'rinli bo'ladi. I.T. Ogorodnikov o'z tadqiqotlarida kasb-hunar kollejdagi o'qitish metodlarining o'ziga xosligi deganda, uning ilm o'rghanish metodlari bilan yaqinlaShuvidadir deb biladi. S.I. Arxangelskiyning fikricha, kasb-hunar kollejdagi o'qitish metodlari nafaqat dars berish usullari va uslublarini birlashtiradi, balki bilishning o'quv va ilmiy faoliyatga yo'naltirilgan tizimi ekanligini qayd qiladi. Shunday qilib, kasb-hunar kollejdagi o'qitish metodlari o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko'plab ishlab chiqarish sohalarini texnologiyalashtirishga sabab bo'lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, gumanitar bilimlar sohalariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, Shu jumladan ta'lif sohasida ham.

“Texnologiya” tuShunchasi texnik taraqqiyot sababli yuzaga keldi va lug’atlar talqini bo’yicha (techne san’at, hunar, fan; logoq – tuShuncha, ta’limot) materiallarga ishlov berish usullari va vositalari haqidagi bilimlar to’plami demakdir. Texnologiya Shu bilan birga jarayonni bilish san’atini ham o’z ichiga oladi. Texnologik jarayon har doim zarur vositalar va sharoitlardan foydalanish bilan operastiyalar ma’lum ketma-ketligini ko’zda tutadi. Texnologiya prostessual mazmunda “qanday qilib, nimadan va qaysi vositalar bilan bajarish kerak?” degan savolga javob beradi.

“Pedagogik texnologiya” tuShunchasi o’qitish nazariyasidan keyingi paytlarda yanada kengroq tarqaldi.

XX asrning 20-yillarida “pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo’yicha asarlarda tilga olingan. Shu vaqtning o’zida yana bir boshqa – “pedagogik texnika” termini ham tarqaldi. U pedagogik enstiklopediyada 30-yillarda o’quv mashg’ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan. Pedagogik texnologiyalarga o’quv va laboratoriya uskunalari bilan ishlash, ko’rgazmali qo’llanmalardan foydalanish mahoratlari ham kiritilgan.

O’tgan asrning 40-50-yillarida, o’qitish - o’quv jarayonlariga texnik vositalarni tatbiq etish boshlanganida, “ta’lim texnologiyasi” termini paydo bo’ldi, u keyingi yillar davomida “pedagogik texnologiyaga” aylantirildi.

60-yillar o’rtalarida bu tuShunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSh, Angliya, Yaponiya, Franstiya, Italiya, Vengriya) uni talqin qilish darajasiga qarab ikki yo’nalishi belgilandi.

Birinchi yo’nalish tarafдорлари texnik vositalar va dasturlashtirilgan o’qitish vositalarini qo’llash zarurligini ta’kidladilar (technology in education).

Ikkinci yo’nalish tarafдорлари esa o’quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g’oyalarning texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo’qotish muhim deb hisobladilar. Shunday qilib 1-yo’nalish “o’qitishda texnik vositalar” sifatida belgilandi, biz biroz keyinroq

yuzaga kelgan 2-yo'nalish "o'qitish texnologiyasi" yoki "o'quv jarayoni texnologiyasi" sifatida belgilandi.

70-yillarning boshlarida turli xildagi o'quv uskunalarini va o'quv vositalarini modernizastiyalashtirish zarurligi anglab etildi. Bularsiz o'qitishning sifatliligi va samaradorligiga erishib bo'lmas edi.

60-yillar o'rtalari va 70-yillarning boshlarida AQSh, Angliya, Yaponiya, Italiya kabi yuksak rivojlangan davlatlarda pedagogik texnologiyalar masalalari bilan Shug'ullanuvchi jurnallar nashr etilar edi, keyinchalik bu muammo bilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar Shug'ullana boshlaydi.

Pedagogik texnologiya deb odatda maqsadi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta'limda ko'zlangan natijalarga erishish bo'lgan chet el pedagogikasining yo'nalishiga aytildi (M. Klarin, 1989) milliy pedagogik adabiyotlarda bunday hollarda o'qitishning didaktikasi yoki metodikasi haqida gapiradilar, biroq "texnologiya" termini hozirgi kunda juda keng tarqalgan.

"Pedagogik texnologiya" so'z birligi – bu inglizcha "*an educational technology*" – "ta'lim texnologiyasi" iborasining aniq bo'lмаган tarjimasidir. "Pedagogik texnologiya" tuShunchasi oxirgi paytlarda o'qitish nazariyasida yanada kengroq tarqalib kelmoqda. Aynan ana Shu mazmunda "texnologiya" termini va uning "o'qitish texnologiyasi", "ta'lim texnologiyasi", "ta'limda texnologiya" shakllari pedagogik adabiyotlarda foydalanila boshlandi va mualiflar ta'lim-texnologik jarayonining tuzilishi va tashkil etuvchilarini qanday tasavvur etishlariga qarab ko'plab ifodalarga ega bo'ldilar (uch yuzdan ortiq).

"Pedagogik texnologiya" termini birinchi bor pedagogika bo'yicha ishlarda - XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tuShunchasini turlicha ifodalash mumkin:

1. Texnologiya – bu biron-bir ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan uslublar to'plamidir (talqinli lug'at).
2. Pedagogik texnologiya – bu o'quv jarayonini amalga oshirish mazmunli texnikasidir (V.P. Bespalko).

3. Pedagogik texnologiya – bu o’qitishda rejalashtirilgan natijalarga erishish jarayonini tasvirlashdir (I.P. Volkov).
4. Pedagogik texnologiya – bu o’qitish, tarbiyaviy vositalar, shakllari, metodlari, usul, uslublarining maxsus to’plami va tuzilishini belgilovchi psixologik-pedagogik ko’rsatmalar yig’indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy metodik quroli demakdir (B.T. Lixachev).
5. Pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini optimallashtirish masalasini qo’yuvchi, texnik va insoniy imkoniyatlarni va ularning o’zaro munosabatlarini hisobga olib o’qitish va bilimlarni o’zlashtirish jarayonini yaratish, qo’llash va belgilashga sistemali yondashishdir (YuNESKO).
6. Texnologiya – bu san’at, mahorat, mohirlik, ishlab chiqish metodlari to’plami, holatini o’zgartirishdir (V.M. Shepel).
7. O’qtishi texnologiyasi - bu o’quvchilar va o’qituvchilar uchun so’zsiz qulay sharoitlar yaratib berish bilan o’quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va olib borish bo’yicha har tomonlama o’ylab chiqilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat modelidir (V.M.Monaxov).
8. Pedagogik texnologiya – bu pedagogikada fikrlashning sistemali usulidir (T.Sakamoto).
9. Pedagogik texnologiya – o’quv jarayonining tashkiliy shakli, metodlari, mazmunini o’zgartiruvchi uning rivojlanish yangi sistemasidir (E. Bistereki va J.Seller).
10. Pedagogik texnologiya pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalilaniladigan hamma shaxsiy, instrumental va metodologik vositalarni sistemali to’plami va ishlatilish tartibini bildiradi (M.V.Klarin).
11. Pedagogik texnologiya – bu ta’lim maqsadiga erishishga qaratilgan o’qituvchi va o’quvchining faoliyatini sistemali, kosteptual, qoidali, ob’ektivlashtirilgan, invariant tasvirlashdir (F.A.Fradkin).
12. Pedagogik texnologiya bilimlarni egallashda rejalashtirish, boshqarish va ta’minlashni taxlil qilish uchun faoliyatni tashkil etish usulini, odamlar, g’oyalar,

vositalarni o’z ichiga oluvchi kompleks integral jarayon demakdir (Pedagogik kommunikastiyalar va texnologiyalar bo’yicha AQSh assostiasiyyasi).

Barcha xalqlarda hamma vaqt yaxshi tayyorlangan mutaxassislar, o’z ishining ustalari hurmat qilingan, mahorat bilan mohirona o’qitish ham yuksak baholangan.

Pedagogika fani tarixida o’qitish va kadrlar tayyorlashning yanada mukammal metodlarini va usullarini izlash doimiy davom etib kelgan.

O’qitish – bu uning jamiyat taraqqiyoti uchun samarasi pedagogning faoliyati yakunlanishi bilan darxol ko’rinmasa ham har qanday boshqa faoliyat kabi ishlab chiqarish faoliyatidir.

Jamiyat tarixida iqtisodiy davrlar faqatgina nimalar ishlab chiqarilishi, kim tomonidan qancha ishlab chiqarilishi, mehnatning qaysi vositalari bilan ishlab chiqarilishi bilangina farq qilmaydi.

Ana Shu nuqtai nazaridan biz ijtimoiy tarixda mavjud bo’lgan “pedagogik davrlarni” ko’rib chiqamiz:

I. Individual pedagog, qo’l bilan ishlaydigan pedagogning pedagogik faoliyati davri (qadimgi davrlardan boshlab XVII asrgacha);

II. O’quv kitobi davri (XVII asrdan hozirgi davrgacha);

III. Audiovizual vositalar davri (XX asrning 50-yillari).

IV. O’qitishni boshqarishni avtomatlashtirish oddiy vositalari davri (XX asrning 70-yillari).

V. Zamonaviy hisoblash mashinalari asosida ta’limni boshqarishni avtomatlashtirishda adaptiv vositalar davri (XX asr oxiri kompyuterni o’qitish).

“Pedagogik texnologiya” tuShunchasi uchta aspektlar bilan taqdim etilishi mumkin:

1) Ilmiy pedagogik texnologiya - o’qitishning maqsadi, mazmuni va metodlarini o’rganuvchi va ishlab chiquvchi, pedagogik jarayonlarni loyihalashtiruvchi pedagogik fanning bir qismidir.

2) prostessual-ta’rifiy: jarayonni tasvirlash o’qitishning ko’zda tutilgan natijalariga erishish uchun vositalar va maqsad, metodlar to’plami.

3) prostessual-amaliy: texnologik jarayonni amalga oshirilishi, hamma shaxsiy, instrumental va metodologik pedagogik vositalarning ishga solinishi⁹.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya o'qitishning eng samarali yo'llarini izlovchi fan sifatida ham, o'qitishda qo'llaniladigan usullar, prinstiplar va boshqaruvar sistemasi sifatida ham, o'qitish haqiqiy jarayoni sifatida ham ishtirok etadi. Avtoritar texnologiyalar, bunda pedagog o'quv-tarbiyaviy jarayonning yakka sub'ekti hisoblanadi, o'quvchi esa faqatgina "ob'ekt", biror-bir qismdek bo'ladi. Ular maktab hayotini qat'iy tashkil etilishi, o'quvchilarning tashabbusi va mustaqilligiga yo'l qo'ymaslik, talab va majburlash qo'llanilishi bilan ajralib turadi.

Didaktostentrik texnologiyalar ham bola shaxsiga e'tiborsizlik yuqori darajasi bilan ajralib turadi, ularda ham o'qituvchi va o'quvchi o'rta hisoblanadi. munosabatlarlar hukm suradi, o'qitish ta'limdan ustun qo'yiladi va shaxsni shakllantirish eng asosiy omillari didaktik vositalar hisoblanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar butun maktab, o'rta maxsus ta'lim tizimi markaziga bola shaxsini, uning rivojlanishi uchun qulay, kelishmovchilik-larsiz va xavfssiz sharoitlarni ta'minlash, uning tabiiy imkoniyatlarini amalga oshirishni qo'yadi. Bu texnologiyada bola shaxsi faqatgina ob'ekt emas, balki muhim sub'ekt hamdir: u biror-bir noaniq maqsadga erishish vositasi emas, balki ta'lim tizimi maqsadi hisoblanadi (avtoritar va didaktostentrik texnologiyalarida bo'lganidek). Bunday texnologiyalarni yana antrostentrik deb ham ataydilar. Shaxsga-yo'naltirilgan texnologiyalar doirasida insonparvarlik, shaxsiy texnologiyalar, hamkorlik texnologiyalari va erkin tarbiyalash texnologiyalari mustaqil yo'nalganligi bilan ajralib turadi.

Hamkorlik texnologiyasi, o'qituvchi va bola o'rta hisoblanadi ob'ekt-sub'ektiv munosabatlarda demokratiklik, tenglikni, hamkorlikni amalga oshiradi. O'qituvchi

⁹ Ishmuhamedov R.J. Innovastion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005., Yo'ldoshev J.G. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari. (equid o'qituvchi bo'lish osnm) T., 1998, Yo'ldoshev J.G'. J.G'.Yo'ldoshev. Ta'lim yangilanish yo'lida.-T.: O'qituvchi. 2000., Yo'ldoshev J.G', S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O'qituvchi. 2004.,

va o'quvchi birgalikda maqsad, mazmunni ishlab chiqadilar, hamkorlik va birgalikda ijod holatida bo'lib baho beradilar.

Erkin tarbiya texnologiyalar bolaning hayotiy faoliyati doirasida ko'pmi ozmi tanlashi va mustaqilligi erkinligi berishga e'tiborni qaratadi. Tanlovni amalga oshirib bola natijalarga tashqi ta'sir ostida emas, balki ichki tuyg'ulari orqali boradi, u sub'ekt nuqtai nazarini eng yaxshi uslub bilan amalga oshiradi.

Tanqidiy fikrlashning faol metodlari.

Tanqidiy fikrlashni o'stirishga xizmat qiladigan metodlar "Demokratik ta'lim uchun" konsorstiumi tomonidan amalga oshiriladigan "Tanqidiy fikrlash uchun o'qish va yozish" loyihasi doirasida ishlab chiqilgan.

Tanqidiy fikrlashning faol metodlarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar: Tanqidiy fikrlash nima?

Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi Shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi. Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko'nikma emas. Tanqidiy fikrlash ta'limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstdan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lган hodisa ham emas.

Braun (1989) ta'kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o'quv ko'nikmalari ta'lim oluvchilarga ob'ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llay olmaydilar. Rixer ta'biri bo'yicha o'rganish va fikrlashning ta'rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta'limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

1. Samarali va muttasil o'rganish asosida talabalarning axborotlarni o'zlashtirish, sintezlash va ularni to'la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga hammualliflar, 1985).
- 2.O'rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Bunday strategiya o'rganish jarayonini yanada onglilashtiradi (Palinskar va Braun, 1989).

3. O'rganish va tanqidiy fikrlash talabalarning aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'lgan taqdirda rivojlanadi (Resnik,1987).
4. O'rganish talabalarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog'lash imkoniyatini beradi (Ros,1990)¹⁰.
5. Tanqidiy fikrlash va o'rganish g'oya va tajribalarning turli-tumanligini pedagoglar tuShungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash "yakkayu yagona to'g'ri javob"ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.

Tanjidiy fikrlashning rivojlanish muhitini yaratish

Tanjidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q.

Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun vaqt va imkoniyat berish;
 talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
 turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
 talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
 talabalarni kulgiga qolmaslikka ishontirish kerak;
 har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;
 tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan o'quvchilar:

o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tuShunish;
 o'quv jarayonida faol ishtirok etish;
 turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash;
 o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

¹⁰ Kodjasirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablistax i opornix konseptax,- M.: Ayris-press, 2006., Kolechenko A.K. Enstiklopediya pedagogicheskix texnologiy. Posobie dlya prepodavateley. - SPb: KARO, 2005.

Vaqt. Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Pirson, Xansen, Gordon (1979)¹¹ lar ta'kidlashadiki, o'z fiklarini ijod qilish go'yo avvalgi g'oya, tasavvur, uchraShuvsalar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham:

fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash;
o'zaro tanqidiy fikrlar almashish;
o'z g'oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalarini to'la va aniq ifodalay olish.

Izn. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun talabalar ma'qul va noma'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim. Talabalar yo'l qo'yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar. Tanqidiy tahlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo'lgan do'stona hamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik. Talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi. Rang-barang fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat bиргина javob mavjud bo'lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana Shu javobni topa olsin.

Faollik. Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, Shu tufayli ularning bilimlari o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va

¹¹ Kodjasirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablistax i opornyx konspektax,- M.: Ayris-press, 2006., Kolechenko A.K. Enstiklopediya pedagogicheskix texnologiy. Posobie dlya prepodavateley. - SPb: KARO, 2005..

fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondaShuv ularning faolligini o'stiradi. Mixali Chikjentmixaliy (1975)¹² ta'kidlaydiki, talabalar o'sha murakkab darajadagi o'kuv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta bahra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar.

Tavakkalchilik. Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo'rqlar tavakkal qiluvchi insonlarni rag'batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida "ahmoqona g'oyalari" aql bilan tuzilmagan birikma va tuShunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo'lishi mumkin. O'qituvchi buni o'quv jarayonining tabiiy holati sifatida talabalarga tuShuntirishi lozim. Talabalarni tavakkaldan holi bo'lgan, ya'ni g'oyalari qadrlangan, talabalarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivastiyalash imkonini bo'lgan muhitda o'ylash lozimligiga ishonch hosil qilish zarur.

Qadrlash. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashidir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o'z g'oyalari, tasavvurlarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tuShungan holda chuqur mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar. Talabalar o'z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar.

Qimmatlilik. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talaba ularning fikrlari, o'z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O'qituvchi talabalardan muayyan materialni Shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo'lishi lozim. Bu esa talabalarda o'zgalar g'oyalari mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o'z fikri, o'ziga taalluqli bo'lган g'oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko'rsata olish zarur. Talabalarning o'zlari ham o'z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil

¹² Ishmuhamedov R.J. Innovastion texnologiyalar yordamida ta'llim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005., Yo'ldoshev J.G. Malaka oshirishning nazariy va metodologik asoslari. (equd o'qituvchi bo'lish osnm) T., 1998, Yo'ldoshev J.G'. J.G'.Yo'ldoshev. Ta'llim yangilanish yo'lida.-T.: O'qituvchi. 2000., Yo'ldoshev J.G', S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O'qituvchi. 2004.,

qila olishlari zarur. Ular o'z fikrining tuShuncha va masalani muhokama qilish jarayonida o'ta muhim, Shuningdek, katta hissa bo'lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

O'zaro fikr oliShuv. Fikrlash jarayoni talabalarning o'zaro fikr oliShuvini ko'zda tutadi. Talabalarning o'zaro fikr olishishi ularning bir-biridan o'rganishdagi o'rtoqchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi. O'zaro fikr olishishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

o'ziga ishonch hosil qilish;

ishda faol ishtirok etish;

o'rtoqlar va o'qituvchi bilan fikr olishish;

o'zgalar fikrini tinglay olish.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mualliflari fikrlash jarayonini tashkil etishda idrok qilishning 4 tipini farqlaydilar:

Yaxlitligicha idrok etish. Mavzu yoki fan to'g'risida umumiy bilim beradigan idrokning shaklidir.

Izohli idrok etish. Bu Blum izohlari darajasiga aylandir. Idrokning bu tipida talaba g'oya va hodisalarning o'zaro aloqalarini yoritadi, uning mohiyatini muhokama qiladi, fanning turli sohalariga oid g'oya va axborotlarni hatto tashqi jihatdan bog'liq hodisalarni birlashtiradi.

Shaxsiy idrok etish. Talabalar o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan shaxsiy tajriba va bilimlar tuzilmasini yangi bilimlar bilan bog'lab tuShunish jarayoni aks ettiradi.

Tanqidiy idrok etish. Mazmunni bir tomonga qo'yib, uni tahlil qilish, uning nisbiy qimmatini, to'g'rilibini, foydalilagini va talabalarning bilishi, tuShunishi va qabul qilishi doirasida uning ahamiyatini baholashdir.

Shunday qilib, axborotlarni chorlash, o'ylab ko'rish va fikrlash metodikalaridan foydalinish quyidagi muhim vazifalarni echish imkoniyatini beradi:

talabalarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi;

mashg'ulotlarda faolligini ta'minlaydi;

samarali munozaraga chorlaydi;

talabalarning o'zlarini savollar tuzishi va uni savol tarzida bera olishi uchun yordam beradi;

talabalarga o'z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi;

talabalarning shaxsiy mutolaasi motivastiyasini qo'llab-quvvatlaydi;

har qanday fikrlarga bo'lган hurmat kayfiyatini yaratadi;

talabalarda personajlarga bo'ladigan iztirobini o'stirishga yordam beradi;

talabalar qadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi;

O'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab sifatida xizmat qiladi

talabalarning tanqidiy jalb qilinishiga bir qator umidlar bildiriladi.

Endi Shunday savol tug'iladi: Oliy kasb-hunar kollej metodlari kasb-hunar kollej metodlaridan qay jihatlari bilan farqlanadi?

Kasb-hunar kollejda, akademik listey va kasb xunar kollejlarda fan asoslari o'rghaniladi, umumiy ta'lim beriladi. kasb-hunar kollejda talaba zamonaviy fanni o'rghanadi va ixtisoslik bo'yicha ta'lim oladi. Shuning uchun ham oliy kasb-hunar kollej metodlari bilimlarni etkazish va anglashning usullarigina emas, balki fan

taraqqiyoti jarayoniga tobora kirib borish, uning metodologik va g‘oyaviy asosini ochish metodi hamdir¹³.

O‘rtalik maxsus ta’lim tizimida o‘qitish metodlarini asoslashda didaktika bilan Shug‘ullanuvchi olimlar o‘quv jarayonining xususiyatlari va talabalarning bilish faoliyatini qamrab oladilar, talabalarning kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi masalalariga katta ahamiyat beradilar.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ta’lim va tarbiyani insonparvarlik, demokratik g‘oyalarga muvofiq tashkil etilishi e’tirof etilgan.

Ta’limni insonparvarlashtirish ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsini shurmat qilish, uning sha’ni, obro’si, qadr-qimmatini poymol etmaslik, mavjud iste’dodini rivojlantirishni nazarda tutadi. Demokratlashtirish esa pedagogik jarayonda rasmiyatchilikka yo‘l qo‘ymaslik, ta’lim dasturlarini tanlashda o‘quvchilarning fikrlarini inobatga olishni ifodalaydi.

Respublika uzluksiz ta’lim tizimi ijtimoiy buyurtmani bajarishga xizmat qiladi, barkamol shaxs va etuk mutaxassisni tarbiyalash vazifasini bajaradi.

O‘qitish va o‘rganish usullari ta’lim metodlarining tarkibiy qismi bo‘lishi bilan birga, o‘qituvchi va o‘quvchilarning faol tafakkur qilish faoliyati va xarakteriga mos bo‘lgan xuddi Shunday usullarni ham o‘z ichiga oladi.

Ammo o‘qitish usullari umumiyligi belgilar hamda muhim o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan holda ta’lim metodlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu jihatdan o‘qitish usullari barcha o‘quv predmetlari uchun umumiyligi bo‘lgan didaktik metodlardan farq qiladi. Metodik usullar o‘qitish predmeti tarix kursining mazmuni bilan bog‘liq va unga faol ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, o‘qituvchi darsga tayyorlanishida o‘quv materialining mazmuniga muvofiq va bu materialning ta’lim-tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradigan metodik usullarni (o‘qitish va o‘rganish usullarini) to‘g‘ri tanlab olishi kerak.

¹³ Jumaniyozova M.T. Farg‘ona viloyati tayanch maktablari negizida o‘qituvchilarni malakasini oshirish tajriba-sinov kursi uchun o‘quv reja, dastur, mashg‘ulotlar jadvali va o‘quv –medodik majmua.T.: 2010.-25 b.

Ma'lumki, har bir darsga va darsdan tashqari mashg'ulotga tayyorlanish dars va mashg'ulot maqsadini, ularning ta'lim-tarbiya vazifalarini belgilashdan boshlanadi. O'quv materialining mazmuniga muvofiq uning ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga yordam beradigan metodik usullarni to'g'ri va ilmiy asosda tanlab olish o'qituvchining bu boradagi nazariy bilim darajasi va metodik usullar sistemasini qanchalik o'zlashtirib olganligiga bog'liqdir.

II bob. Tarix darslarida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish va uning uslubiy ahamiyati

II.1. Tarix darslarida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish

Ta'lim jarayonida noan'anaviy dars usullari alohida o'rin tutadi. Ular o'quvchi faoliyatini faollashtiradi va uyg'unlashtiradi, mustaqil fikr yuritishga chorlaydi, mashg'ulotlarning qiziqarli va samarali o'tishiga olib keladi. noan'anaviy dars usullarning muhim o'rni yana Shu bilan izohlanadiki, o'quvchining o'quv materialini samaraliroq o'zlashtirishi ko'p jihatdan uning mustaqil harakat qilishi, o'zi tahlil va xulosa qilishiga ko'proq bog'liqdir.

Pedagog, psixolog, uslubchilarimizning isbotlashlaricha o'quv materiallari:

- Maruza eshitganimizda 5%;
- O'qiganimizda 10%;
- Videousul, namoyish ko'rganimizda 20%;
- Tajribani namoyish qilish, ko'rgan va eshitganimizda 30%;
- Bahs-munozara, muhokama qilganimizda 40%;
- Mashqlar ishlab, o'qigan, yozgan, gapirganimizda 50%;
- Ishbop o'yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash, mustaqil o'qiganimizda, tahlil va muhokama qilganimizda, hikoya va namoyish qilganimizda 75%;
- noan'anaviy dars usullardan foydalanilganda, yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, mustaqil o'rganganimizda, tahlil va muhokama qilganimizda 90% o'zlashadi. Darhaqiqat, Xitoy faylasufi Konfutsiy idrok etganidek,

“Aytsang- unutaman!

Ko'rsatsang eslab qolaman!

O'zim bajarsam- anglab etaman!”¹⁴.

¹⁴ Jumaniyozova M.T. Farg'ona viloyati tayanch maktablari negizida o'qituvchilarni malakasini oshirish tajriba-sinov kursi uchun o'quv reja, dastur, mashg'ulotlar jadvali va o'quv –medodik majmua.T.: 2010.-22 b.

Bundan tashqari, noan'anaviy dars usullar qo'llanilmagan an'anaviy ta'lim bilan mazkur usullar asosida tashkil etilgan noan'anaviy ta'lim o'rtasida bir qator notekisliklar mavjud. Jumladan,

An'anaviy ta'limning kamchiliklari:

- O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar;
- O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi;
- O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi;
- Eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bo'limganligi sababli, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin;
- Mustaqil o'rganish va echimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

noan'anaviy dars usullarning afzalliklari:

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi mumkin;
- O'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi;
- TuShunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilish;
- O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi;
- Motivasiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- O'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi;
- Muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- O'z- o'zini baholashning o'sishi;
- O'quvchilarning predmetning mazmuniga o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati;
- Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchilarning shakllanishiga yordam berishi;
- Nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi;
- Muammolarni echish ko'nikmalarining shakllanishi kuzatiladi.

Ta'lim jarayonida noan'anaviy dars usullardan foydalanilganda o'quvchi o'zlashtirishining o'ziga xos tomonlarini ham hisobga olish foydadan xoli

emas. Kuzatishlarga ko‘ra, o‘quvchi o‘zlashtirishi taxminan quyidagi darajalarda bo‘ladi:

- birinchi daraja:

O‘quvchi vazifani to‘liq qabul qiladi, ish oxirigacha uni to‘liq saqlaydi. Diqqat bilan chalg‘imasdan ishlaydi. Asosan, aniq ishlaydi, xatoga yo‘l qo‘ysa, tekshirayotganida buni sezadi va to‘g‘rilaydi. O‘quvchi ishni topshirishga shoshilmaydi, ishni to‘g‘ri, chiroqli, tartibli bajarganini yana bir bor tekshiradi.

- ikkinchi daraja:

O‘quvchi vazifani to‘liq qabul qiladi, uni ish oxirigacha saqlaydi. Ish jarayonida ba’zi bir xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin, lekin ularni sezmaydi va tuzatmaydi. Ishni tekshirish vaqtida ham xatolarni sezmaydi. YAxshi baho olishga intilishi bo‘lgani bilan, ishning sifati uni qiziqtirmaydi.

- uchinchi daraja:

O‘quvchi vazifaning faqat bir qismini qabul qiladi, lekin mashg‘ulot oxirigacha uni qabul qilgan hajmini ham saqlab qololmasligi mumkin. Vazifani bajarayotganida faqat e’tiborsizligi tufayli emas, balki vazifalarni bajarish qoidalarini eslab qololmaganligi uchun ham xatolarga yo‘l qo‘yadi. Xatolarni odatda sezmaydi, ish jarayonida tuzatmaydi, vazifani tekshirayotganida ham sezmaydi. Ishni yaxshilashga xohish bildirmaydi. Olingan natijalarga sovuqqonlik bilan qaraydi.

- to‘rtinchi daraja:

O‘quvchi vazifaning kichik qisminigina qabul qiladi, lekin Shu zahotiyoy uni yo‘qotadi. Xatolarini sezmaydi, ularni tuzatmaydi, vazifaning to‘g‘ri bajarilganligini tekshirishga vaqt ketkazmaydi. Bajarilgan ish sifatiga befarq.

Ta’lim jarayonida qanday noan’anaviy dars usullaridan foydalanilyapti va ularni qo‘llash uslubiyotini keltirish mumkinmi?

Quyida noan’anaviy dars usullaridan namunalar keltirishga va ularning afzalliklarini ko‘rsatib o‘tishga harakat qilamiz.

“Davra suhbat” usuli

Davra suhbati- o‘quvchilar o‘rtasida va kichik guruhlarda aylana stol atrofida o‘z fikr- mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish usulidir.

Davra suhbati usuli qo‘llanganda, stol- stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir o‘quvchining bir- bri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishga yordam beradi. Davra suhbating og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida o‘qituvchi mavzuni boshlab beradi va o‘quvchilardan ushbu mavzu bo‘yicha o‘z fikr- mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir o‘quvchi o‘z fikr- mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan o‘quvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama kilish lozim bulsa, barcha fikr — mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashishiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

YOzma davra suhbatida ham stol,stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir o‘quvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir o‘quvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va yonidagi o‘quvchiga uzatadi. Konvertni olgan - o‘quvchi o‘z javobini qog‘ozga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi o‘quvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. YAkuniy qismda barcha kosvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

Davra suhbati usulining afzalliklari:

- o‘tilgan materialni yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha o‘quvchilar o‘zaro muloqotda bo‘ladilar;
- har bir o‘quvchi o‘zining ishtirok etish mas’uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud.

«Ishbop o‘yin» usuli

Ishbop o‘yin—berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishi imitasiya qilish (taqlid, aks ettirish) usuli hisoblanadi.

O‘yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitasiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga

ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘gartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual - guruhli xarakterga ega. Xar bir ishtirokchi avval o‘zining vazifasi bo‘yicha qaror qabul qiladi, so‘ngra guruh bilan maslahatlashadi. Ushbu shaxsiy vazifa bo‘yicha maqsadga erishish butun guruh a’zolari erishgan natijalarga bog‘liqdir. O‘yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.

«Ishbop o‘yin» usulining afzalliklari:

- o‘quvchilarning bilimlarini va tajribalarini o‘z qarashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;
- o‘quvchining boshlang‘ich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- o‘quvchilar o‘z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.

«Yo‘naltiruvchi matn» usuli

Yo‘naltiruvchi matn — o‘quvchilar mustaqil ravishda yo‘naltiruvchi savollar yordamida ma’lumot yig‘ish, rejalashtirish, amalga oshirish vazifalarini bajaradigan usuldir.

«Yo‘naltiruvchi matn» usuli loyihalash bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu ikki usulni bir- biridan quyidagi nuqtai nazar bo‘yicha farqlash mumkin:

- 1) «yo‘naltiruvchi matn» usuli o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishiga qaratilgan;
- 2) «loyixalash» usuli esa, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishidan tashqari, e’tiborni kasb o‘rganishda kerak bo‘ladigan shaxsiy qobiliyatlar va ko‘nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan.

«Yo‘naltiruvchi matn» usulidan o‘quv amaliyot darslarida foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu usulni o‘tkazish bosqichlari loyihalash usulining bosqichlari bilan bir—xildir. Ma’lumot yig‘ish, rejalashtirish, amalga oshirish va tekshirish bosqichlarida o‘quvchi va o‘qituvchi orasida «qaytuvchi aloqa» o‘rnatilib, birgalikda muhokama qiladilar. O‘quvchilarga boshlang‘ich bosqichlarda

o‘qituvchi tomonidan tuzilgan yozma hujjatlar beriladi. Bunday hujjatlarga texnik chizmalar, jadvallar, yo‘naltiruvchi savollar, tarqatma materiallar, topshiriqlar varaqasi, baholash varaqasi va boshkalar kiradi.

«Yo‘naltiruvchi matn» usulining afzalliklari:

- o‘quvchilarning ko‘nikma va malakalarining shakllanishiga olib keladi;
- o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- o‘quvchilarda muloqot qilish, o‘z natijalarini o‘zi tekshirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- o‘quvchilarda ish - harakatlarni rejalashtirish, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

«Muammoli vaziyat» usuli

Muammoli vaziyat — o‘quvchilarga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning echimini topishga asoslangan usuldir. «Muammoli vaziyat» usuli uchun tanlagan topshiriqning murakkabligi o‘quvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning echimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, o‘quvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi.

«Muammoli vaziyat» usulining afzalliklari:

- o‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- o‘quvchilar sabab, farq va ta’sirlarni topishni o‘rganadilar;
- o‘quvchilarning bilim va tajribalarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- o‘quvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

«Aqliy hujum» usuli

Aqliy hujum - g‘oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish usulidir. «Aqliy hujum» usuli biror muammoni echishda o‘quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir echimga kelinadigan eng samarali usuldir. Aqliy hujum usulining yozma va og‘zaki usullari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga o‘quvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. O‘quvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa berilgan savolga o‘quvchilar o‘z javoblarini qogoz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy hujum» usulining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu usul to‘g‘ri va ijobjiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandard fikrlashga o‘rgatadi.

Aqliy hujum usulidan foydalanilganda o‘quvchilarning barchasini jalgan etish imkoniyati bo‘ladi, Shu jumladan o‘quvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. O‘quvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi o‘quvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu usul o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” usuli o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. O‘quvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu usul darsning mavzuga kirish qismida amalga oshirish o‘rinlidir.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda, yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda- mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshirish samara beradi.

“Aqliy hujum” usulining afzallik tomonlari:

- natijalar baholanmasligi o‘quvchilarni turli fikr- g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;

- o‘quvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr- g‘oyalar rag‘batlantirib boriladi;
- o‘quvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- o‘quvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otish mumkin.

“**Rolli o‘yin**” usuli

Rolli o‘yin- o‘quvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi usuldir. Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidir. Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni echish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar o‘quvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

O‘yin yakunida o‘quvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan o‘quvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

«**Rolli uyin**» usulida o‘qituvchi o‘quvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. CHunki rollarni o‘ynashda har bir o‘quvchining individual xarakteri, xulq- atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak.

“**Rolli o‘yin**” usulining afzallik tomonlari:

- o‘quv jarayonida o‘quvchilarda motivasiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- o‘quvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyatda qo‘llay olishni o‘rgatadi;
- o‘quvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“**Zig—zag**” usuli

«Zig—zag» usuli tahlil oluvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishslash, o‘rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha ishtirokchilarni baholay olishga qaratilgan. Ushbu texnologiyada tarqatma materiallar ishtirokchilar tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtiriladi hamda o‘zaro suhbat, babs- munozara, turli savollar orqali ularning matnni qay darajada o‘zlashtirilganligi nazorat qilinadi va kichik guruhlarning faolliklari va o‘zlashtirish darajalari tezkor baholanadi.

“Zig-zag” usuli bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich. 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarni tashkil etish va o‘rganiladigan mavzu matnini guruhlar soniga mos holda alohida bo‘laklarga ajratgan holda guruhlarga tarqatish. (Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi, tarqatma matnlar ham har bir ishtirokchiga berilishi lozim)

2-bosqich. Guruh a’zolariga berilgan matnlar ishtirokchilar tomonidan yakka tartibda, so‘ng guruh bilan mustaqil o‘rganiladi

3-bosqich. Raqamlar yozilgan qog‘ozchalar (raqamlar kichik guruh ishtirokchilarining soniga mos bo‘lishi kerak) kichik guruh ishtirokchilari tomonidan tortiladi.

4-bosqich. Har bir kichik guruhlardagi bir xil raqamli ishtirokchilar alohida stol atrofida birlashadilar. Bu bosqichda har bir ishtirokchi ham o‘qituvchi, ham o‘quvchi rolida ishtirok etadilar.

O‘qituvchi sifatida o‘rganib kelgan materialini sheriklariga tuShuntiradi. O‘quvchi sifatida sheriklari tuShuntirgan matnlarni o‘rganadi. Guruh ishtirokchilari savollar asosida bir – birlarini tekshirib ko‘radilar. Baholash esa, guruhlarning bir- birlariga savol berishi yoki test, savollari yoki Shu ishlarning taqdimoti ko‘rinishida olib borilishi mumkin.

Bu usulining afzalligi:

- Hajm jihatidan katta materialni mustaqil o‘zlashtirish imkoniyatining mavjudligi.

- Kichik guruhlarda ishlash jarayonida har bir guruh a'zosining guruh bilan ishlash hamjihatligining mustahkamlanishi.

«BAHS-MUNOZARA» usuli

Bahs - munozara o'quvchilarni ikki guruhga bo'lgan holda biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish usuli. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu usul qo'llaniladi. Bahs- munozarani boshqarib borish vazifasini o'quvchilarning biriga topshirish mumkin. Bahs-munozarani o'quvchilar erkin holda olib borish va har bir o'quvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu usul olib borilayotganda o'quvchilar orasida paydo bo'ladigan "nizo"larni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

Bahs- munozara usulining afzalliklari:

- O'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi;
- O'quvchilar o'z fikrining to'g'rilingini isbotlashga harakat qiladilar;
- O'quvchilarda eshitish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi;

Insert texnologiyasi

Insert texnologiyasi — o'quv materiallarini o'zlashtirish va mustahkamlash, tahsil oluvchilarning kitob bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda uy vazifalarini mustaqil bajarishda qo'llaniladigan texnologiyadir. Ushbu texnologiyada ishtirokchilar matnlardan mustaqil foydalanishni, olingan axborotlarni taxlil qilish, tizimlashtirish, belgilar qo'yib o'qishni, ularni qisqa va aniq bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar

Usulning afzalligi:

- tahsil oluvchi matnlardan mustaqil foydalana oladi.
- olingan axborotlarni mustaqil tahlil qila oladi
- axborotlarni tizimlashtirib, shartli belgilar yordamida ularni qisqa va aniq bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'лади.
- kichik guruhlarda ishlash jarayonida har bir guruh a'zosining guruh bilan ishlash hamjixatligi mustahkamlanadi.

«KEYS – STADI» metodi haqida

"Keys" tuShunchasi - axborot majmuasi, "Stadi" tuShunchasi- ta'lim degan ma'noni bildiradi. Keys stadi - bu amaliy vaziyatni muammoli yoritish asosida muammoni tushinishga, baxolashga va muammoning echimini topishga yordam beruvchi axborot majmuasi.

Keys – ishlab chiqarishdagi, davlat boshqaruvidagi, iqtisodiyot yoki madaniy rivojlanishda sodir bo‘ladigan, aniq muammoli vaziyatning tafsifidir. Keys usuli yuqorida keltirilgan yo‘nalishdagi hayotiy masalalarni o‘quv mashg‘ulotlarida tahlil etish va hal qilish usuli hisoblanadi. Unda ishtirokchilarga haqiqiy hayotiy vaziyat fikr yuritish taklif etiladi, bu vaziyat bayonida faqat ilmiy masala ifodalanib qolmasdan, undagi muammoni echish jarayonida o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan o‘quv materiali ham ifodalanishi kerak.

"Keys-stadi"lardan foydalanish o‘quvchilarda aniq vaziyatlarni tahlil qilish va baholashga, muammoli vaziyatdan chiqishga yordam beradi.

Keys usulini qo‘llash jarayonida ta’lim oluvchilarni vaziyatni tahlil qilishga o‘rgatish maqsadida, vaziyatni quyidagi tartiblarda bayon qilish mumkin:

- muammoli (qo‘yilgan muammo bo‘yicha muammoli vaziyatlar majmuasini ajratish talab qilinib, ularning turlari, echish usullariga muvofiq holda tanlanadi);
- tizimli (vaziyatlar tarkibining tavsiflari va vazifalarini aniqlash);
- sabab-oqibatli (vaziyatni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash);
- tavsiyali (vaziyatni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va uni echish uchun tavsiyalar berish);
- dasturiy –maqsadli (joriy vaziyatlar uchun tadbirlar dasturini ishlab chiqish);
- tashxisli (vaziyatdagi faoliyat mazmunini tashxislash, uni modellash);

O‘quv mashg‘ulotlarida keyslarni hal qilish algoritmi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Topshiriqni berish (topshiriqni bajarish muddatini belgilash, keysni echimini baholash tizimi bilan tanishtirish, darsning texnologik modelini aniqlash).

2. Ta’lim beriuvhining kirish so‘zi. Asosy topshiriq va savollarni qo‘yilishi.
3. Ta’lim oluvchilarni 4-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratilishi.
4. Kichik guruhlar faoliyatini tashkil etish (guruhlarni nomlash, etakchilarni aniqlash)
5. Kichik guruhlar ishini tashkil etish (munozara, muhokama va to‘g‘ri echimni belgilash uchun vaqt ajratish).
6. Kichik guruhlarning taqdimoti.
7. O‘qituvchining umumlashtiruvchi so‘zi, uning keyslar echimi haqidagi fikrlari
8. Guruhlar ishini baholash bosqichi
9. O‘qituvchining yakunlovchi so‘zi. Mashg‘ulot bo‘yicha xulosalar chiqarish.

